



“TASDIQLAYMAN”

Atrof-muhit va tabiatni muhofaza
qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot
instituti

S. Buriyev
S. Buriyev

2022-yil “29” aprel

TANLASH HUJJATLARI

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan ekolog” faxriy unvonini ta‘sis etish to‘g‘risida”gi Qonuni, “Tabiat himoyachisi” ko‘krak nishonini ta‘sis etish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori hamda nizomi, “Yashil makon” elektron platformasini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori hamda nizomi, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi xodimlari mehnatini moddiy rag‘batlantirish va ularni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risidagi buyruq va nizom loyihalarini tayyorlash.

Buyurtmachi: O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi huzuridagi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti.

Toshkent - 2022

1. Tanlashda ishtirok etuvchilar uchun umumiy qo'llanma

1. Umumiy tavsif.	<p>1.1. Mazkur tanlash hujjati O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni (keyingi o'rinlarda Qonun deb yuritiladi) hamda shunga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-fevraldagi "Loyihaoldi, loyiha, tender hujjatlari va kontraktlarni ekspertizadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3550-son qarori (keyingi o'rinlarda qaror deb yuritiladi) talablari asosida ishlab chiqilgan.</p> <p>1.2. Tanlash maqsadi: Ekologiya va atrof-muhit sohasini boshqarish va tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy va boshqa tUSDagi hujjatlar loyihalarini tayyorlash bo'yicha xizmatlarni ko'rsatuvchi tashkilotni aniqlash.</p> <p>1.3. Tanlashga qo'yilgan xizmatlarni ko'rsatishning umumiy narxi 80 000 000 so'mni tashkil etadi.</p> <p>1.4. Buyurtmachi tomonidan tanlashga taklif etilgan narxdan tanlashda ishtirok etuvchining taklif etgan narxi oshib ketmasligi kerak.</p> <p>1.5. Xizmat ko'rsatishning texnik topshirig'i tanlash hujjatlarining texnik qismida aks ettirilgan.</p> <p>1.6. Tanlash taklifini rasmiylashtirish shakli — elektron tartibda amalga oshiriladi.</p>
2. Tanlash tashkilotchilari.	<p>2.1. Tanlashda "Buyurtmachi" sifatida O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi huzuridagi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti ishtirok etadi. Manzil: Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor shoh ko'chasi, 7a. STIR: 305 028 989 Bank rekvizitlari: Markaz bank Toshkent sh. Bosh boshqarmasi HKKM STIR 201 122 919 MFO 00014 Moliya vazirligi G'aznachiligi YAG'H 2340 2000 3001 0000 1010 SH/H 4001 1086 0262 9470 5530 0144 001 Tel/faks: (71) 277 89 22 E.pochta:eco_nii@uznature.ru</p> <p>2.2. Tashkilotchining aloqa raqamlari: (71) 277 43 44 (71) 277 89 22</p> <p>2.3. Tanlash "Buyurtmachi" ko'rsatmasiga asosan tashkil etilgan tanlash komissiyasi tomonidan 6 (olti) kishidan iborat guruh a'zolari ishtirokida amalga oshiriladi.</p>
3. Tanlash ishtirokchilari.	<p>3.1. Mazkur hujjatning 4.2.-bandida nazarda tutilgan yuridik shaxslardan tashqari faoliyat turidan qat'iy nazar barcha turdagi yuridik shaxslar, shuningdek, kichik biznes subyektlari</p>

	<p>mazkur tanlashda ishtirok etish huquqiga ega.</p> <p>4.1. Tanlashda qatnashish uchun tanlash qatnashchisi quyidagilarni amalga oshirishi lozim:</p> <p>a). Tanlash shartlari bilan tanishish maqsadida “Buyurtmachi”ning maxsus ma’lumotlar portaliga joylashtirilgan tanlash hujjatlarining elektron shaklini yuklab olishi;</p> <p>b). Mazkur tanlash hujjatlari talablariga asosan tanlash (konkurs) takliflarini taqdim etishi.</p> <p>4.2. Tanlashda quyidagi yuridik shaxslar ishtirok etishiga ruxsat berilmaydi:</p> <p>a). Faoliyati tugatilishi arafasida turgan yuridik shaxslar;</p> <p>b). Soliqlar va yig’imlarni to’lash bo’yicha muddati o’tgan qarzdorligi mavjud yuridik shaxslar;</p> <p>c). Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda qayd etilgan ijrochilar;</p> <p>4.3. Buyurtmachi, quyidagi holatlarga ko’ra ishtirokchilarni tanlashda qatnashishdan chetlashtiradi:</p> <p>a). Taraflar o’rtasida O’zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risida”gi qonun hujjatlari talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirsa, shu jumladan, pora berishni taklif qilsa, va’da bersa, tovlamachilik qilsa va boshqa korrupsiogen holatlar amalga oshirilsa.</p> <p>4.4. Tanlashda ishtirok etish uchun talab qilinadigan hujjatlar o’zbek va rus tillarida amalga oshiriladi. Agar boshqa davlat tilida taqdim etiladigan hujjatlar mavjud bo’lsa, unda albatta ushbu hujjatlar o’zbek va rus tillarida tarjima qilingan holda tanlashga taqdim etiladi.</p> <p>4.5. Tanlash ishtirokchisi:</p> <p>a). Taqdim etilgan hujjat va ma’lumotlar uchun to’liq javobgarlikni o’z zimmasiga oladi;</p> <p>b). Tanlashga bitta taklifni taqdim etish huquqiga ega;</p> <p>b). Tanlashda onlayn ravishda ishtirok etish huquqiga ega;</p> <p>4.6. Tanlash 2 (ikki) bosqichda amalga oshiriladi:</p> <p>a). Tanlash talabiga ko’ra taklif etilgan narxni aniqlash va solishtirish;</p> <p>b). “Buyurtmachi” tomonidan tanlash ishtirokchilarining taqdim etgan hujjatlariga asosan talablarni sifatli, tez va muddatida bajarish, ishlatiladigan mahsulotlar turi, shuningdek, e’lon shartlariga muvofiq bajarish muddati, to’lovni amalga oshirish shartlari bilan bog’liq boshqa holatlar ham baholanadi.</p>
4. Tanlashni o’tkazish tartibi.	
5. Tanlashni o’tkazish muddati.	<p>5.1. Tanlash ishtirokchilari tomonidan hujjatlar taqdim etilganidan keyin, komissiya a’zolari ushbu hujjatlarni 10 kun muddat ichida o’rganib chiqadi.</p>
6. Komissiya tomonidan baholash	<p>6.1. Baholash mezonlari O’zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to’g’risida”gi Qonun hamda O’zbekiston</p>

<p>mezoni va tartibi.</p>	<p>Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-fevraldagi “Loyihaoldi, loyiha, tender hujjatlari va kontraktlarni ekspertizadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3550-son qaror hamda tegishli normativ hujjatlar asosida amalga oshiriladi.</p> <p>6.2. Tanlash ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan takliflarni ko‘rib chiqish va baholash mezoni takliflarni qabul qilish muddati tugaganidan keyin 10 kun muddat ichida amalga oshiriladi.</p> <p>6.3. Baholash mezoni jarayonida tanlash ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan hujjatlardagi ma‘lumotlar haqiqiy emasligi aniqlansa, komissiya ushbu ishtirokchini tanlashda qatnashishdan chetlashtiradi.</p> <p>6.4. Tanlash g‘olibi berilgan takliflar va baholash mezoniga asosan aniqlanadi.</p>
<p>7. Shartnomani rasmiylashtirish tartibi.</p>	<p>7.1. Tanlash natijasiga ko‘ra tanlash g‘olibi (yuridik shaxs) bilan 2 (ikki) kun muddatda tegishli shartnomalar rasmiylashtiriladi</p>

“TASDIQLAYMAN”



Atrof-muhit va tabiatni muhofaza
qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot
instituti

S. Buriyev

S. Buriyev

2022-yil “28” *aprel*

**Ekologiya va atrof-muhit sohasini boshqarish va tartibga solishga qaratilgan
normativ-huquqiy va boshqa tUSDagi hujjatlar loyihalarini tayyorlash
bo'yicha xizmatlarni ko'rsatuvchi tashkilotni aniqlash maqsadida tanlash
ishtirokchilari taqdim etgan hujjatlarni baholash mezonini bo'yicha**

M A' L U M O T

T/r	Takliflarni baholash turi	Belgilangan ball.
1.	Buyurtmani bajarishning aniq muddati, tavsifnomalar va sifat ko'rsatkichlari (avvalgi bajarilgan ishlar xususidagi buyurtmachi tashkilotlar tomonidan berilgan ma'lumotnoma va xulosalar asosida)	- 40 ball
2.	Normativ-huquqiy hujjatlar, boshqa huquqiy va boshqaruv hujjatlari loyihalarini tayyorlash, ularni yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish va tahrir qilish sohasida kamida 3 yillik tajriba hamda malakali huquqshunos xodimlar bazasiga ega bo'lish	- 20 ball
3.	Moliyaviy ko'rsatkichlar (taqdim etilgan buxgalteriya hisobotlariga ko'ra)	- 20 ball
4.	Ishtirokchi tomonidan tanlash o'tkazilishi haqidagi e'londa ko'rsatilgan hamda talab etilgan barcha xarid qilish hujjatlarini xarid komissiyasi a'zolari tekshirishi uchun tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot portaliga joylashtirishi	- 20 ball

Ilmiy ishlar bo'yicha
direktor o'rinborasir
(komissiya raisi)



X.Aminov

Ilmiy kotib



M.Sattarov

Bo'lim boshlig'i



A.Urinova

Laboratoriya mudiri




D. Umarxodjayev

Bo'lim boshlig'i



Sh.Kamilov

Kotib



D.Atajanova